SURXONDARYO VILOYATIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI

Xursanov Sherzod Ulaboyevich
Mustaqil tadqiqotchi Termiz davlat universiteti Termiz, O‘zbekiston
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23506076

Annotatsiya

Maqolada Surxondaryo viloyatida 2010–2025-yillarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi, uning tarmoq tarkibi hamda tashqi savdo ko‘rsatkichlari statistik tahlil qilingan. Nominal o‘sish fizik hajm indeksi bilan taqqoslanib, ishlab chiqarish qiymatining o‘sishida narx omilining ulushi baholangan. Tarmoq va eksport tarkibidagi yuqori konsentratsiya hamda importning bir necha mahsulotga bog‘liqligi aniqlangan.

Tayanch so‘zlar: oziq-ovqat sanoati, ishlab chiqarish dinamikasi, fizik hajm indeksi, tarkibiy siljish, eksport, import, Surxondaryo viloyati.

Abstract

The article provides a statistical analysis of the dynamics of food production in Surkhandarya region in 2010–2025, its industry structure and foreign trade indicators. Nominal growth is compared with the physical volume index, and the share of the price factor in the growth of production value is assessed. A high concentration in the industry and export structure and the dependence of imports on a few products are identified.

Key words: food industry, production dynamics, physical volume index, structural shift, export, import, Surkhandarya region.

Аннотация

В статье проведён статистический анализ динамики производства пищевых продуктов в Сурхандарьинской области за 2010–2025 гг., его отраслевой структуры и показателей внешней торговли. Номинальный рост сопоставлен с индексом физического объёма, оценена доля ценового фактора в росте стоимости производства. Выявлены высокая концентрация отраслевой и экспортной структуры и зависимость импорта от нескольких товаров.

Ключевые слова: пищевая промышленность, динамика производства, индекс физического объёма, структурный сдвиг, экспорт, импорт, Сурхандарьинская область.

Kirish. Aholini oziq-ovqat bilan barqaror ta’minlash har bir hudud iqtisodiyotining asosiy vazifalaridan biridir. Mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligi hududning mahsulot ishlab chiqarish salohiyati va importga bog‘liqlik darajasi bilan belgilanadi [1]. Tarmoqni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator qarorlar qabul qilingan [2].

Surxondaryo viloyati aholisi 2025-yil boshida 2,9 mln kishidan oshgan va tez o‘smoqda. Shu sababli viloyat oziq-ovqat sanoatining real holatini – nominal ko‘rsatkichlardan tashqari, fizik hajm,

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.


tarmoq tarkibi va tashqi savdo nuqtai nazaridan baholash muhim. Maqolaning maqsadi – shu ko‘rsatkichlar bo‘yicha viloyat oziq-ovqat sanoati rivojlanishini statistik tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Oziq-ovqat xavfsizligini statistik baholash masalalari MDH olimlari ishlarida keng yoritilgan. I.Yu.Lenchevskiy mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligi hududning ishlab chiqarish salohiyati va o‘zini o‘zi ta’minlash darajasiga bog‘liqligini ta’kidlagan [1]. V.N.Afanasev uni statistik tahlil qilish metodologiyasini rivojlantirgan [3]. Mahalliy olimlardan D.N.Saidova oziq-ovqat xavfsizligini ichki imkoniyatlar hisobiga ta’minlash va importga bog‘liqlikni kamaytirish bilan bog‘lagan [4], F.M.Fazilov esa eksportga yo‘naltirilgan va importni o‘rnini bosuvchi strategiyalarni uyg‘unlashtirish zarurligini asoslagan [5]. Biroq hudud kesimida ishlab chiqarishning real va nominal dinamikasini ajratib tahlil qilish masalasiga kam e’tibor qaratilgan.

Tahlil va natijalar

Tahlil viloyat statistika boshqarmasining “Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish” faoliyat turi bo‘yicha ma’lumotlari asosida bajarildi [6]. 2010–2025-yillarda ishlab chiqarish hajmi 209,0 mlrd so‘mdan 3 183,4 mlrd so‘mga, ya’ni 15,2 barobar oshgan, o‘rtacha yillik mutlaq o‘sish 198,3 mlrd so‘mni tashkil etgan. Biroq bu qiymat joriy narxlarda bo‘lib, narxlar o‘zgarishini ham o‘z ichiga oladi. Real dinamikani baholash uchun fizik hajm indekslaridan foydalanildi (1-rasm).



1-rasm. Surxondaryo viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning nominal hajmi va fizik hajmi dinamikasi, 2010–2025-yy.

Natijalar nominal va real o‘sish o‘rtasida katta farq borligini ko‘rsatadi: o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati joriy narxlarda 119,9 foiz bo‘lsa, fizik hajm bo‘yicha atigi 103,8 foiz. Natijada 15 yil davomida real ishlab chiqarish faqat 1,74 barobar oshgan, ya’ni nominal o‘sishning asosiy qismi narx omili hisobiga yuz bergan. 2022–2023-yillarda real hajm ketma-ket qisqargan (96,3 va 81,3 foiz), 2024–2025-yillardagi tiklanish esa bu pasayishni to‘liq qoplamagan. Aholi yiliga o‘rtacha 67 ming kishiga ko‘paygani hisobga olinsa, jon boshiga real ishlab chiqarish pasaygan. Tarmoqning viloyat ishlab chiqaradigan sanoatidagi ulushi 2010-yildagi 31,2 foizdan 2025-yilda 18,7 foizgacha qisqargan.

Tarmoq tarkibidagi o‘zgarishlar 1-jadvalda keltirilgan.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

1-jadval

Oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining ishlab chiqarish tarkibidagi ulushi (qiymat bo‘yicha, %)

Tarmoq	2013-yil	2024-yil	O‘zgarish, f.b.
Un mahsulotlari	47,46	38,80	−8,66
Sut va sut mahsulotlari	13,03	31,80	+18,77
Go‘sht va go‘sht mahsulotlari	16,30	11,29	−5,02
Qandolat mahsulotlari	4,57	5,81	+1,24
Alkogolsiz ichimliklar	1,19	4,89	+3,70
Spirtli ichimliklar	14,05	3,75	−10,30
Makaron mahsulotlari	3,39	2,74	−0,65

Eng katta tarkibiy siljish sut mahsulotlarida kuzatildi: ularning ulushi 2,4 barobar oshdi. Un mahsulotlari yetakchiligini saqlab qolsa-da, ulushi kamaydi. Shunga qaramay, un va sut mahsulotlari birgalikda ishlab chiqarish qiymatining 70,6 foizini tashkil etadi, ya’ni tarmoq tarkibi yuqori darajada konsentratsiyalashgan.

Tashqi savdo ham konsentratsiyalashgan: 2010–2024-yillardagi eksportning 55,8 foizi yagona mahsulot – mayizga to‘g‘ri keladi, yetakchi o‘nta mahsulot esa 99,2 foizni tashkil etadi. Mayiz eksporti 2022-yildagi 7,2 mln dollardan 2024-yilda 0,8 mln dollargacha qisqargani bunday bog‘liqlikning xatarini ko‘rsatadi. Importning 92,8 foizi to‘rt mahsulot – bug‘doy uni, oq shakar, sariyog‘ va guruchga to‘g‘ri keladi.

Xulosa

Surxondaryo viloyatida oziq-ovqat ishlab chiqarishining nominal hajmi tez o‘sgan bo‘lsa-da, real o‘sish ancha sekin kechgan va so‘nggi yillarda aholi o‘sishidan ortda qolgan. Tarmoq tarkibi, eksport va import bir necha mahsulotga bog‘liq. Shu bois quvvatlardan foydalanishni oshirish, tarmoq va eksport tarkibini diversifikatsiya qilish hamda import qilinayotgan asosiy mahsulotlar bo‘yicha mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ленчевский И.Ю. (2003). О некоторых аспектах продовольственной безопасности // Достижения науки и техники АПК. – № 1. – С. 6–9.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-sentyabrdagi PQ-4821-son Qarori. https://lex.uz/docs/-4990322
3. Афанасьев В.Н. (2015). Развитие методологии статистического анализа продовольственной безопасности // Вопросы статистики. – № 3. – С. 17–26.
4. Саидова Д.Н., Рустамова И.Б., Турсунов Ш.А. Аграр сиёсат ва озиқ-овқат хавфсизлиги: ўқув қўлланма. – Т.: ЎзР Фанлар академияси асосий кутубхонаси.
5. Фазилов Ф.М. (2008). Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви шароитида Ўзбекистон озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш: иқтисод фанлари номзоди дис. автореф. – Т.: ЖИДУ.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2025). Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi. https://stat.uz/uz/

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.